



YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNING HUQUQIY ASOSLARI

Tojiboyeva Mahzuna Ravshanovna

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Xorijiy til va adabiyoti: nemis tili
fakulteti 1-kurs 761-24-guruh talabasi
tojiboyevamuhsina2701@gmail.com*

Tel: +998 93 247 27 01

Annotatsiya: *Mazkur maqolada gender tengligi tushunchasi va uning mohiyati, tarixda o'rni qay darajada bo'lganligi. Shuningdek, gender tenglikni ta'minlash orqali qo'lga kiritiladigan bir nechta imkoniyatlar va masalalar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *gender, jins, tarix, imkoniyatlar, erkak va ayol huquqlari, yangi O'zbekiston, ayol.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие гендерного равенства и его сущность, в какой степени оно имеет место в истории. Также анализируются некоторые возможности и проблемы, которые можно получить путем обеспечения гендерного равенства.*

Ключевые слова: *гендер, пол, история, возможности, права мужчины и женщины, новый Узбекистан, женщина.*

Abstract: *In this article, the concept of gender equality and its essence, to what extent it has a place in history. Also, several opportunities and issues to be gained by ensuring gender equality are analyzed.*

Key words: *gender, sex, history, opportunities, male and female rights, new Uzbekistan, woman.*



Kirish

Hozirgi kunda davlatlar rivojlanishida alohida e'tiborga olingan masalalar sirasiga jamiyat, davlat, ta'lim, oila tuzilmalarida gender tenglik masalasiga alohida e'tibor qaratilomqda. Ushbu tushuncha tadqiqotlar maydoniga o'tgan asrning 70-yillarida kirib kelgan. Gender tenglik tushunchasiga olimlar turli xil nazariyalarni aytib o'tishgan. Masalan, bular qatoriga V.Fon.Gumbold, A.A.Potebnya, D.Lakoff, L.Push kabilar taniqli olimlarni keltirishimiz mumkin. Gender tenglik masalasi yuzasidan turlicha tadqiq qilishgan o'zbek olimlaridan; Sh. Raxmatullayev, A.E.Mamatov, P/U/Bakirov, M.K.Xoliqova, K.D.To'xtayeva va boshqalar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi – bu patriaxal tizimidan keying ijtimoi-jinsiy munosabatlarning keying bosqichi. Ba'zilarning fikricha esa, gender tenglik bu erkak va ayollarning teng huquqligi. **Gender tenglik** (lotincha parties-tenglik) – muvozanatli, ya'ni, hayotning barcha sohalarida (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoi) hokimiyat va qarorlar qabul qilishda erkaklar va ayollarning bir xil, teng ishtiroki, jinslar o'rtasidagi tengligi hisoblanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik tamoyilini jamiyatga singdisha bilan bog'liq ko'pgina islohotlar va qonunlar joriy qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambelyasining 75-yubley sessiyasida o'zbek tilida so'zlangan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernatziya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender tenglik masalasiga alohida to'xtalganlar. Nutqlarida; “Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi”¹ deb e'tirof etadilar. O'zbekiston respublikasi joriy Konstitutsiyasining 58-moddasida ham gender tenglik masalasiga to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra;

¹ O'zbekiston Respublikasi Gazeta.uz sayti



Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi². Bundan tashqari gender so'zining o'ziga ham ta'rifa bersak;

“gender” so'zi inglizcha “gender”, lotincha “gnus” so'zlaridan olingan bo'lib, “zot, jins, kelib chiqish” ma'nosini anglatadi.

gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati³. Agarda biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratadigan bo'lsa, gender esa ayol va erkaklarning jamiyatdagi o'rnini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda har bir ayol va erkakning o'z o'rnini topishi, shuningdek, davlat boshqarishda va siyosat ishlarida ayollarning ham o'rni, huquqlari ta'minlanishi gender tenglikning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. M 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatida; “Meni kishilarimizning ongida paydo bo'layotgan stereopit ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni, avvalamobor, ona, oila qo'rg'oning qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamalkatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak!”⁴ deb dav'at qilgan nutqini eslamog'imiz lozim.

Ayol-jamiyatning ko'zgusidir. O'tgan davrlarda, faqat erkaklar har tomonlama ustun hisoblanishgan, biroq hozirgi kunga kelib ayollar ham erkaklar bilan teng mavqeydadir. Ayollarni kamsitishga, ularning huquqlaridan mahrum

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023 <https://lex.uz/docs/-6445145>

³ O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonun 03.09.2019 <https://lex.uz/docs/-4494849>

⁴ Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-iyun oyida Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi.



qilishga hech kimning haqqi yo'qdir va bu qonun nazorati ostidadir. Bilamizki, ayollar oldin siyosiy huquqlarga ega bo'lishmagan ular davlat ishlarini bevosita boshqarishga o'z hissalarini qo'sha olishmagan. Ammo, hozir unday emas. Ayollarning siyosiy huquqlarini ta'minlash maqsadida. 28.12.1997 yilda Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida konvensiya joriy qilingan. Ushbu konvensiyaning 2-moddasiga e'tibor qarataylik;

Ayollar erkaklar bilan teng sharoitlarda, hech qanday kamsitishlarsiz, milliy qonunchilikda belgilangan tartibda barcha davlat va jamoat xizmati lavozimlarini egallash va ularni amalga oshirish huquqiga ega.⁵ Demak, har bir ayol erkaklar ishlayotgan davlat va jamoat xizmati lavozimlarini egallash huquqiga ega ekanlar. Agar hozirni o'tmish bilan solishtirsa yer bilan osmonchalik farqi borligiga amin bo'lamiz. Oldinlari, ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash to'g'risida hech qanday qonunlarimiz bo'lmagan. Ayollar faqat past tabaqada ko'rilgan. Hatto bilamizki, ayollar ta'lim muassasalarida ilm olish, ishlash kabi huquqlaridan foydalanishga jur'at topa olishmagan. Aslida, bu huquqlar ya'ni gender tenglik avvaldan mavjud bo'lgan. Buni Islom ta'limotida ko'rishimiz mumkin. Qur'oni karimning "Tavba" surasida "Mo'minlar va mo'minalar bir-birlariga do'stdirlar: (odamlarni) yaxshilikka buyuradilar, yomonlikdan qaytaradilar"⁶. Bundan tashqari, Islom shariatida Alloh taoloning kalomida ilm talab qilish musulmonlarning erkagu ayoliga tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin. To'g'ri bu yerda aniq gender tenglik mavjud degan jumlanlarni ko'rmadik, biroq shu mavzuga olib boradigan suralardir. Ya'ni Islomda ayollarga har doim hurmt ko'rsatilgan va ta'lim olish burchi berilgan. Hindistonda juda xunuk holat hukm surgan. Agar erkak kishi vafot etsa, xotini tiriklayin eriga qo'shib kuydirilgan. Qadimgi Xitoyda esa, qiz bolaning tug'ilishi falokat sifatida e'tirof etilgan. Tarixlardan ko'rishimiz mumkinki, erkaklar tug'ilsa shodlik qizlar tu'lsa esa

⁵ Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida konvensiya 28.12.1997 <https://lex.uz/docs/-2690835>

⁶ Qur'oni karim "Tavba surasi" 71-oyat. "Hilol nashr", 2017



azalik ochilgan. Hatto, qiz farzandni dunyoga keltirgan onani qizi bilan o'ldirib yuborilgan holatlar ham tariximizda mavjud bo'lgan. Shu o'rinda Antifontning o'z asarlarida qo'llagan jumlasini yodga olaylik;

“Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi.”

Hozirda yangilanayotgan O'zbekistonda davlatimiz tomonidan kelajagimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lgan onalar va barcha xotin-qizlarni ishlab chiqarish jarayonida himoyalashga qaratilgan ulkan ijtimoiy dasturlar va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “ayollarni ijtimoiy himoyalash”, “nogironlarni mehnatga qyatarish” davlat dasturlarining ro'yobga chiqarila boshlanishi bilan bir necha minglab ish joylari sog'lomlashuviga, qulay va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilishiga erishildi. Masalan, 2019-yil 7-martda qabul qilingan “Xotin-qizlarning huquq kafolatlarini yanada kechaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar” to'g'risidagi qonun. Bundan tashqari ayollarni siyosiy huquqlarini ta'minlash maqsadida deklaratsiyalar joriy qilingan. Shuningdek, temir daftarchasi, Zulfiya mukofoti kabi bir qancha imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berilgan. Bizning mamlakatda gender tenglikni ta'minlash har doim muhim masalalarimizdan bir bo'lib kelgan va hamon shunday davom etmoqda. Xotin va qizlarimiz borligi sabali biz mavjudmiz, ular tufayli mamlakatimiz yuksalmoqda va albatta bu cheksiz mukofotlarga arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Gazeta.uz sayti



3. O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida gi qonun
4. Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-iyun oyida Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yapi majlisidagi nutqi
5. Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya 28.12.1997
6. Qur'oni karim "Tavba surasi" 71-oyat "Hilol nashriyot", 2017